



## TIJORAT BANKLARFINING INVESTITSIOON JOZIBADORLIGINING OSHISHI IQTISODIY TARAQQIYOT GAROVIDIR

Q.Nazarov

TDIU SF «Buxgalteriya hisobi, moliya va soliq» kafedrası  
assistenti, +998939994450, Kilichnazarov447@gmail.com  
<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.8032954>

### ARTICLE INFO

Received: 05<sup>th</sup> June 2023

Accepted: 12<sup>th</sup> June 2023

Online: 13<sup>th</sup> June 2023

### KEY WORDS

Tijorat banki, integratsiya, transformatsiya, investitsion jozibadorlik, aktiv, kapital, deposit, majburiyat, kredit, bozor iqtisodiyoti.

### ABSTRACT

*Maqolada O'zbekiston Respublikasi bank tizimini 2020-2025 yillarga mo'ljallangan davrda isloh qilish strategiyasida ustav kapitalida davlat ulushi mavjud bo'lgan tijorat banklarini transformatsiya qilish bank tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida etirof etilgan. Bu esa, tijorat banklari likvidligini oshirish, investitsiyalardan samarali foydalanish, hamda tijorat banklarining investitsion jozibadorligini ta'minlash zaruriyatini yuzaga keltiradi.*

### Kirish

Dunyo mamlakatlari o'rtasida iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi integratsiya jarayonlarini tezlashtirib yubordi. Bu tezlashuv ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, davlat va jamiyat hayotining barcha jabhalarida, shuningdek bunday munosabatlar bank-moliya, tizimlarida xususan tijorat banklari faoliyatida ham o'z ifodasini topayapti.[1]. Keyingi yillarda respublikamizda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev boshchiligida olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar bank tizimini ham o'z ichiga qamrab olib, sohaga zamonaviy moliya-bozor mexanizmlarini keng joriy etishda namoyon bo'lyapti. Shu paytgacha banklar kapitalining asosiy qismi davlatga tegishli ekanligi, bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklarining sog'lom raqobat olib borishiga to'siq bo'layotgani va tijorat banklarining rivojlanishiga, sifatli xizmatlar ko'rsatishiga o'zining ta'sirini ko'rsatib kelayotgani ma'lum [2].

Bugungi kunda, iqtisodiy munosabatlar jadal rivojlanib borayotgan bir davrda har bir mamlakatning iqtisodiy rivojlanishini investitsiyalarsiz tasavvur etish qiyin, Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "investitsiya – bu iqtisodiyot drayveri, o'zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Investitsiya bilan birga turli soha va tarmoqlarga, hududlarga yangi texnologiyalar, ilg'or tajribalar, yuksak malakali mutaxassislar kirib keladi, tadbirkorlik jadal rivojlanadi" [3].

O'zbekiston Respublikasi bank tizimini 2020-2025 yillarga mo'ljallangan davrda isloh qilish strategiyasida ustav kapitalida davlat ulushi mavjud bo'lgan tijorat banklarini kompleks transformatsiya qilish bank tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilib, "Davlat ulushi mavjud tijorat banklarini kompleks transformatsiya qilish, bank ishining zamonaviy standartlarini, axborot texnologiyalari va dasturiy mahsulotlarni joriy etish, banklardagi davlat aksiyalari paketini zarur tajriba va bilimga ega bo'lgan investorlarga



tanlov asosida sotish, shuningdek, davlat ulushi mavjud tijorat banklari va korxonalarini bir vaqtning o'zida isloh qilish orqali bank sektorida davlatning ulushini kamaytirish"<sup>1</sup> masalasi qo'yilgan [4].

Haqiqatda, ushbu muhim yo'nalishda tijorat banklari ishtirok etyaptimi, degan savol tug'ilishi mumkin. Hozirgi davrda O'zbekiston jahon moliya bozorlarida aktiv ishtirok etib, "J.P.Morgan", «Gazprombank» (Rossiya Federatsiyasi), «Kyongnam Bank» (Koreya Respublikasi), «Commerzbank AG» (Germaniya), «Korea Eximbank» (Koreya Respublikasi), «Landensbank Baden-Wurttemberg» (Germaniy), «Oriyonbank» (Tojikiston Respublikasi), «Shinhan bank» (Koreya Respublikasi) kabi dunyoning ilg'or banklari vakolatxonalari ochilib, shuningdek, xalqaro moliya tashkilotlari bilan moliyaviy aloqalar o'rnatilgan [5].

Mana shu bilan, so'nggi yillarda tijorat banklari faoliyatida, ayniqsa, ularning investitsion faoliyatini kengaytirishga qaratilgan muhim institutsional o'zgarishlar amalga oshirilyapti, Prezidentimiz rahbarligida xalqaro moliya institutlari bilan birgalikda bank-moliya tizimini isloh qilish bo'yicha uzoq muddatli rivojlantirish rejasi ishlab chiqildi.

Shu asnosida, mamlakat bank tizimimizga xususiy va xorijiy kapital kirib keladi. Natijada, bank sektoridagi davlat ulushi sekinlik bilan kamayib, sohada raqobat muhiti yaxshilanib, tijorat banklarining moliyaviy aktivligi oshib, xizmat ko'rsatish madaniyati, ayniqsa, tijorat banklarining investitsion jozibadorligi ortib boradi. Respublikamiz tijorat banklarining o'z kapitali bankning funktsiyalarini bajaradigan o'zlik mablag'larini ichiga olib, bankning jalb qilingan mablag'laridan farqli, faqat bankning o'ziga tegishli bo'lgan mablag'larni qamrab oladi. Bank kapitali korxonalar kapitalidan farq qilib, bank aylanma mablag'larining 10% ni tasahkil etadi, korxonalarda esa bu ko'rsatkich 40-50 % va undan ko'proq bo'lishi ham mumkin.

### **Mavzu oid adabiyotlat tahlili.**

G.S.Chebotayovanning fikricha kapitalning etarliligi bank ishonchliligini umumiy baholashni aks ettiradi. Y'ani, zamonaviy bank nazariyasida ustunlik qiluvchi, kapitalning etarliligining asoslovchi asosiy printsiplari kelib chiqadi: bankning o'z mablag'lari (kapitali) miqdori uning aktivlari tavakkalchiligini hisobga olgan holdagi darajasiga mos kelishi kerak deyiladi.

M.S.Maramigin, E.G.Shatkovskaya, M.P.Loginov, N.N.Mokeeva, E.N.Prokofeyva, A.E.Zaborskaya, va A.S.Dolgovlarning fikricha kapital - bankning omonatchilar, kreditorlar va mijozlar oldidagi javobgarligi kafolatining chegaraviy qiymati, ya'ni u o'z majburiyatlari bo'yicha minimal ta'minot vazifasini bajaradi deyiladi.

Piter S.Krouz kapital - bu bank egalari tomonidan o'z tavakkalchiligi ostida qo'yilgan mablag'lar, kapitalning daromadliligi juda past bo'lishi yoki bank bankrot bo'lishi yoki aksiyadorlar kam yoki hech narsa olmasligi mumkin. Bank egalari uchun duch keladigan risk bu - kredit riski, likvidlik riski, foiz stavkasi riski, operatsion risk, valyuta riski va xizmat vazifasini suiste'mol qilish xavfi kiradi deb ta'kidlaydi.

T.M. Kosterin esa bank kapitali (K) quyidagi funktsiyalarni bajaradi:

- 1) ro'yxatdan o'tish – kredit tashkilotini yaratishda;
- 2) emissiya - ustav kapitalini shakllantirishda;

<sup>1</sup>2020 — 2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 12.05.2020 yildagi PF-5992-son



3) tartibga soluvchi – bank faoliyatining iqtisodiy me’yorlarini hisoblash uchun kapital bazasi;  
4) zaxiralash (himoya) - muayyan kafolatlar beradi bankning omonatchilari, kreditorlari va mijozlari uchun;

5) operativ – bankning rivojlanishini, bank operatsiyalari hajmini oshirish imkoniyatini ta’minlash vazifasini bajaradi deydi:

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Tadqiqotni amalga oshirishda induksiya va deduksiya, ekspert baholash, guruhlash va trendli tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning axborot manbai sifatida O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik ma’lumotlaridan hamda moliyaviy hisobotlari malumotlaridan foydalanildi.

### **Tahlillar va natijalar**

Bank kapitalining minimal miqdori xalqaro Bazel qo‘mitasining talablariga ko‘ra asosiy (I darajali) kapital va qo‘shimcha (II darajali) kapitaldan tashkil topadi, va u reguliyativ kapital ham deb ataladi. Bank nazorati bo‘yicha Bazel qo‘mitasi Nazorat (Basel Committee on Banking Supervision) - bu bank faoliyatini tartibga soluvchi milliy nazorat institutlarini birlashtirgan tashkilot. Qo‘mita 1974 yilda G10 mamlakatlari markaziy banklari tomonidan Xalqaro hisob-kitoblar banki ((Bank for International Settlements – BIS),) qoshida tashkil etilgan. Bazelda (Shveytsariya) joylashgan. Bu qo‘mita shahar nomidan kelib chiqqan va uning nomini oldi - Bazel qo‘mitasi.

U bank nazorati organlarining yuqori martabali vakillaridan iborat bo‘lib bank nazorati bo‘yicha Bazel qo‘mitasi bank faoliyatini tartibga solishning yagona standartlari va usullarini ishlab chiqadi. Reguliyativ kapital bankni boshqarish va moliyaviy faoliyatini olib borish uchun asosiy zarur bo‘lgan o‘zlik mablag‘idir.

Bank nazorati bo‘yicha Bazel qo‘mitasi quyidagilardan iborat:

- Bazel I: “Kapital va standartlarni hisoblashning xalqaro yaqinlashuvi kapital” (1988).
- Bazel II: Kapitalning yetariligi to‘g‘risidagi yangi kelishuvlar (2004).
- Bazel III: “Banklar va bank sektorining barqarorligini oshirish bo‘yicha umumiy tartibga solish yondashuvlari” va Bazel III: Xalqaro yondashuvlar”.

likvidlik riskini baholash, standartlari va monitoringi” (2010).

I darajali kapital reguliyativ kapitalning 75%ni yoki undan ko‘prog‘ni tashkil etishi mumkin, II darajali kapital I darajali kapitalning uchdan bir qismidan oshib ketsa, u holda kapitalning oshib ketgan qismi reguliyativ kapital tarkibiga kiritilmaydi.

Respublikamizda tijorat banklarining ustav kapitalini shakllantirish qonun va meyyoriy huquqiy hujjatlarga asoslanadi, ya’ni, “Bank va banklar faoliyati to‘g‘risida”gi qonun, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2015-yil 13-iyundagi 14/3-son qarori “Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risidagi” nizom va boshqa meyyoriy normativ hujjatlar asosida tartibga solinib boriladi.

O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi 19.04.2023 yildagi O‘RQ-831-sonli “Bank va banklar faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuniga asosan respublika tijorat banklarining ustav kapitali sekinlik bilan oshirilib borib:

2023-yil 1-sentabrga qadar yuz milliard so‘mni;

2023-yil 1-sentabrdan e’tiboran ikki yuz milliard so‘mni;

2024-yil 1-apreldan e’tiboran uch yuz ellik milliard so‘mni;



2025-yil 1-yanvardan e'tiboran besh yuz milliard so'mni tashkil etishi belgilab berilgan.

“Regulyativ kapital — bank faoliyatini tartibga solish va prudensial normativlar hisob-kitobini amalga oshirish maqsadida hisob-kitob qilish yo'li bilan aniqlanadigan bank kapitali”<sup>2</sup>.

Respublikamiz tijorat banklarining regulyativ kapitalining 01.01.2018 yil-01.01.23 yillar oralig'ida bo'lgan o'zgarishini 1-jadval ma'lumotlaridan ko'rib tahlil qilamiz. Jadval-1.

**Bank tizimi jami kapitali monandlik darajasi**

Ko'rsatkichlar nomi	01.01.2018 y.		01.01.2019 y.		01.01.2020 y.		01.01.2021 y.		01.01.2022 y.		01.01.2023 y.	
	mild. so'm	ulushi, foizda	mild. so'm	ulushi, foizda	mild. so'm	ulushi, foizda	mild. so'm	ulushi, foizda	mild. so'm	ulushi, foizda	mild. so'm	ulushi, foizda
<b>I darajali kapital</b>	17627,1	88,2	22 146,3	91,4	43 659,2	83,2	48140	82,8	58624	83,5	67793	81,3
Asosiy kapital	17 580,3	87,9	22 060,6	91,0	43 621,6	83,1	48028	82,6	58429	83,2	67598	81,0
Qo'shimcha kapital	46,8	0,2	85,6	0,4	37,6	0,1	113	0,2	195	0,3	195	0,2
<b>II darajali kapital</b>	2 365,7	11,8	2 084,9	8,6	8 807,5	16,8	10022	17,2	11567	16,5	15620	18,7
<b>Jami regulyativ kapital</b>	19 992,8	100	24 231,1	100	52 466,8	100	58162	100	70191	100	83413	100
<i>Kapital monandlik darajasi</i>	18,8%		15,6%		23,5%		18,4		17,5		17,8	
<i>I darajali kapital monandlik darajasi</i>	16,5%		14,3%		19,6%		15,2		14,6		14,5	

Jadval ma'lumotlariga ko'ra Respublika tijorat banklarining 01.01.2018 yil holatiga I darajali kapitali 17,6 trln. so'mni 01.01.2023 yil holatiga esa, 67,8 trln. so'mni tashkil etgan, y'ani 50,2 trln. so'mga oshganligini ko'rishimiz mumkin.

II darajali kapital esa, 01.01.2018 yil holatiga 2,4 trln.so'mni tashkil etgan bo'lsa, 01.01.2023 yil holatiga 15,6 trln. so'mni tashkil etib 13,3 trln. so'mga oshganligini ko'rishimiz mumkin. Jami regulyativ kapitalning o'sishida I darajali kapital 01.01.2018 yil sanasida 88,2%ni tashkil etgan bo'lsa, 01.01.2023 yil holatiga bu ko'rsatkich 81,3 % ni tashkil etayapti, ya'ni 6,9 % ga o'sih pasaygan, II darajali kapital esa 01.01.2018 yil holatiga 11,8% bo'lgan bo'lsa 01.01.2023 yil holatiga 18,7 % ni tashkil etib 6,9% ga o'sishni tashkil etayapti.

Jami regulyativ kapitalning 6 yil davomida 20,0 trln.so'mdan, 83,4 trln.so'mgacha o'sganlini ko'rish mumkin. Ushbu tahlildan, tijorat banklari kapitali salmog'ining o'sishi, likvidligi ortib borishiga, xalq xo'jaligi tarmoqlariga sifatli va zamonaviy bank xizmatlarini ko'rsatishga, kreditlar berish uchun barqaror resurslar shakllanishiga, investitsiyon jozibadorligiga yaqqol ta'sir etganini ko'rishimiz mumkin.

“Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi” nizom talablari asosan, tijorat banklarining moliyaviy normativ huquqiy bazasini takomillashtirish, xalqaro meyyoriy normativlarga muvofiq bank faoliyatini tashkil etish, shuningdek Bazel qo'mitasining tavsiyalariga asosan tijorat banklarining kapitali monandligiga nisbatan qo'yilgan talablarni oshirish hisoblanadi.

<sup>2</sup> (O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining qarori, 06.07.2015 yilda ro'yxatdan o'tgan, № 2693)



Shuningdek, tijorat banki uchun ko'proq kapital talab etadigan yuqori riskka tortilgan aktivlar salmog'ini (muddati o'tgan va sud jarayonidagi kreditlarni undirish va bank balansiga olingan mol-mulklarni) kamaytirish va tijorat banklarining o'z omonatchilari, kreditorlarining manfaatlarini himoya qilinishini ta'minlaydi.

**O'zbekiston tijorat banklari aktivlarining amaliy holati**

млрд.со'мда (2 jadval)

№	Банк номи	01.02.20 y.		01.02.21 y.		01.01.2022 y.		01.01.2023 y.		O'zgarishi (+/-)	
		Summa	Ulushlar % da	Summa	Ulushlar % da	Summa	Ulushlar % da	Summa	Ulushlar % da	Summa	Ulushlar % da
<b>Jami</b>		272 727	100	366121	100	444 922	100	556 746	100	383019	204,1
<b>Davlat ulushi mavjud banklar</b>		230 126	84,4	310730	84,9	362 422	81,4	435 136	78,1	205010	189,0
1	O'zmilliybank	66 605	24,4	79 861	21,8	89 919	20,2	119 918	21,5	53313	180,0
2	O'zsanoatqurilishbank	34 892	12,8	49 045	13,4	56 511	12,7	64 264	11,5	27372	184,2
3	Agrobank	18488	6,8	31211	8,5	39 971	9,0	53 068	9,5	34580	287,0
4	Asaka bank	34698	12,7	45518	12,4	50 804	11,4	51 180	9,2	16482	147,5
5	Ipoteka bank	23588	8,6	32410	8,8	40 012	9,0	44 187	7,9	20599	187,3
6	Xalq banki	17334	6,3	26 410	7,2	26 921	6,0	31 672	5,7	14338	183,0
7	Qishloq qurilish bank	12709	4,6	15 923	4,3	20 708	4,6	24 822	4,4	12173	195,3
8	Mikrokreditbank	5890	2,2	10 283	2,8	13 483	3,0	16 782	3,0	10892	285,0
9	Aloqa bank	7342	2,7	8 108	2,2	12 638	2,8	16 084	2,9	8742	219,0
10	Turon bank	5979	2,2	8 714	2,4	11 010	2,5	12 879	2,3	6900	215
11	Poytaxt bank	209	0,08	201	0,05	373	0,08	230	0,04	21	110
12	O'zagroeksportbank	133	0,05	109	0,03	69	0,01	49	0,008	-84	-36,8
<b>Boshqa banklar</b>		42600	15,6	55392	15,1	82 501	18,5	121 611	21,8	79011	285,5
13	Kapital bank	5483	2,0	7291	2,0	15 636	3,51	28 907	5,2	23424	527,2
14	Hankor bank	8838	3,2	10463	2,8	12 422	2,1	16 721	3,0	7883	189,2
15	Ipak yo'li bank	5327	1,9	6957	1,9	9 471	2,1	12 973	2,3	7646	243,5
16	Orient Finans bank	4139	1,5	5129	1,4	5 871	1,3	11 283	2,3	7144	272,6
17	O'zKDB bank	3895	1,4	6291	1,7	7 624	1,7	8 859	1,6	4964	227,4
18	Trast bank	3317	1,2	4735	1,3	6 921	1,5	8 232	1,5	4915	248,2
19	Invest Finans bank	4487	1,6	4616	1,3	5 769	1,3	7 389	1,3	2902	164,7
20	Aziya Aliyans bank	2259	0,8	2935	0,8	3 226	0,7	6 112	1,1	3853	270,6
21	Tenge bank	364	0,1	1593	0,4	3 352	0,7	4 358	0,8	3994	1197,2
22	Davr bank	1415	0,5	1805	0,5	2 663	0,6	3 908	0,7	2493	276,2
23	Anor bank	0		106	0,03	1 125	0,2	3 543	0,6	x	x
24	Ziraat bank	776	0,3	1115	0,3	1 575	0,3	2 062	0,4	1286	265,7
25	Tibisi bank	0	x	202	0,05	1 039	0,2	2 002	0,4	x	x
26	Universal bank	778	0,3	1115	0,3	1 551	0,3	1 941	0,3	1163	249,5
27	Garant bank	1063	0,4	1149	0,3	1 245	0,3	1 584	0,3	521	149,0
28	Ravnaq bank	609	0,2	740	0,2	838	0,2	843	0,1	234	138,4
29	Eron Soderot bank	359	0,1	399	0,1	438	0,1	463	0,08	104	128,9
30	Uzum bank	x	x	x	x	229	0,05	247	0,04	x	xx
31	Madad invest bank	184	0,07	218	0,06	29	0,006	186	0,03	2	101,1
32	Uzum bank	x	x	x	x	1 164	0,2	x	x	x	x
33	Xay-Tek bank	354	0,1	382	0,1	315	0,07	x	x	x	x

Respublika tijorat banklari aktivlarining 01.01.2020 yil va 01.01.23 yil holatiga taqqoslama ko'rsatkichlarni tahlil qilganimizda, jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, jami bank aktivlarining 3 yil davomida 2 baravardan ortiq o'sganligini, shu jumladan, davlat



ulushi mavjud banklarda bank aktivlari 1,9 baravar, davlat ulushi bo'lmagan banklarda esa qariyb 3 baravar o'sganligini ko'rishimiz mumkin.

Bundan tashqari, bank kapitalida davlat ulushining 84,4 foiz dan 78,8 foizgacha kamayganligini, davlat ulushi mavjud bo'lmagan banklarda ustav kapitalining 15,6 foizidan 21,8 foizgacha o'sganligini ko'rish mumkin, bu bilan davlatning bank sektoridagi ulushining sekinlik bilan kamayib borayotganini ko'rish mumkin.

01.01.2020 yildan 01.01.23 yilgacha bo'lgan 3 yillik davrda ustav fondida davlat ulushi mavjud bo'lgan tijorat banklarining aktivlari asosan:

1. O'zmilliybank - 34,6 trln.so'm.
2. Agrobank - 34,6 trln.so'm.
3. O'zsanoatqurilishbank - 27,3 trln.so'm.
4. Asaka bank -15,5 trln.so'm.
5. Ipoteka bank -20,6 trln.so'm.
6. Xalq banki -14,3 trln.so'm.
7. Qishloq qurilish bank -12,1 trln.so'mga,

Boshqa banklar aktivlarining o'sishida quyidagi banklar etakchilik qilishdi.

1. Kapital bank -23.4 trln.so'm.
2. Hamkor bank -7,9 trln.so'm.
3. Ipak yo'li bank -7,6 trln.so'm.
4. Orient Finans bank -7,1 trln.so'mga ortib o'sib borganligini ko'rish mumkin.

Fikrimizcha, respublikamiz tijorat banklarining kapitallashuvining oshishi va investitsion jozibadorligini ta'minlash maqsadida yo'qorida amalga oshirilgan tahlillar ko'rsatdiki, quyidagi takliflarni shakllantirish uchun asos bo'ladi:

- Tijorat banklarining rivojlanishi va investitsion jozibadorligini oshirish uchun bozor iqtisodiyoti sharoitida sog'lom raqobat muhitini yaratish.
- Banklar kapitalining asosiy davlatga tegishli bo'lgan qismini davlat tasarrufidan chiqarishni tezlashtirish.
- Tijorat banklari boshqaruviga davlat boshqaruv organlarining aralashuvini cheklash.
- Tijorat banklari aksiyalarini ochiqdan-ochiq sotuvga chiqarishni tashkil etish, sotish bo'yicha reklama ishlarini yo'lga qo'yish.

Muammoli kreditlar (muddati o'tgan va sud jarayonidagi kreditlar) hajmini kamaytirish. Tijorat bank kredit portfelining sifat darajasini oshirish, davlatga tegishli bo'lgan kredit dasturlari doirasida berilgan kredit javobgarligini tijorat banklari zimmasidan olish.

## References:

1. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi Qonuni. 2019 yil 11-noyabr.
2. O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. 2019 yil.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 12 sentyabrdagi PQ-3270-sonli "Bank tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
4. Omonov A. A., Qoraliev T. M. Pul va banklar. Darslik. T.: «IQTISODMOLIYA» nashriyoti, 2018 y.



5. Андрушин С. А. Банковские системы. Учебное пособие. — М.: Альфа-М: ИНФРА-М, 2013.
6. Abdullaeva Sh.Z. Bank ishi. Darslik. T.: «IQTISOD-MOLIYA» nashriyoti, 2017 y.
7. Грязнова А. Г. Финансово-кредитный энциклопедический словарь. — М.: “ФИС”, 2002.
8. Банковское дело. Под. Ред. Профессора О. И. Лаврушина. –М.: “ФИС”, 2001
9. Учебное пособие Организация деятельности коммерческого банка Г. С. Чеботарева Екатеринбург, Издательство Уральского университета 2018
10. Учебник “Банковское дело и банковские операции” Екатеринбург Издательство Уральского университета 2021, стр.115, Авторы: М. С. Марамыгин, Е. Г. Шатковская, М. П. Логинов, Н. Н. Мокеева,
11. Е. Н. Прокофьева, А. Е. Заборовская, А. С. Долгов
12. Kommercial bank management Producing and Selling Financial Services Second Edition Peter S.ROSE Texas A&M Universty
13. Костерина Т.М. “Банковское дело”: Учебно-практическое пособие. – М.: Изд. центр ЕАОИ, 2009. – 360 с.
14. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)- O'zbekiston Respublikasi qonun pujiatlari to'plami
15. [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz)-zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy sayti
16. [www.bankir.uz](http://www.bankir.uz)-Bank axborotlari portal
17. [www.finance.uz](http://www.finance.uz)- Moliya-iqtisodiy tahlil portali
18. Учебное пособие Организация деятельности коммерческого банка Г. С. Чеботарева Екатеринбург Издательство Уральского университета 2018
19. Учебник БАНКОВСКОЕ ДЕЛО И БАНКОВСКИЕ ОПЕРАЦИИ Екатеринбург Издательство Уральского университета 2021, стр.115, Авторы: М. С. Марамыгин, Е. Г. Шатковская, М. П. Логинов, Н. Н. Мокеева, Е. Н. Прокофьева, А. Е. Заборовская, А. С. Долгов Kommercial bank management Producing and Selling Financial Services Second Edition Peter S.ROSE Texas A&M Universty.